

**MAKTAB XOR TO‘GARAKLARIDA O‘QUVCHILARNI MA’NAVIY
DUNYOQARASHLARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI**

Rahimov Kazimjon Raupovich

Farg`ona davlat unuversiteti 2-bosqich magistranti

kazimjonraximov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada umum ta’lim mакtablarida olib boriladigan xor to‘garklari orqali bolalarni qo’shiq kuylashga o’rgatish bilan cheklanib qolmasdan, ularni g‘oyaviy, ma’naviy dunyoqarashlarini shakllantrish, estetik madaniyatini tarkib toptirishdan iboratligi haqidagi fikr va mulohazalar keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: xor, to‘garak, ma’naviy dunyoqarash, estetik madaniyat.

Аннотация: В данной статье широко освещаются идеи и соображения, заключающиеся не только в обучении детей пению через хоровые кружки, проводимые в общеобразовательных школах, но и в формировании у них идейных, духовных мировоззрений, содержании эстетической культуры.

Ключевые слова: хор, кружок, духовное мировоззрение, эстетическая культура.

Annotation: this article covers a wide range of ideas and reflections on the formation of their ideological, spiritual worldviews, the content of their aesthetic culture, and not limited to teaching children to sing through choral circles conducted in general educational schools.

Keywords: chorus, Circle, spiritual worldview, aesthetic culture.

KIRISH

So‘nggi yillarda mamlakatimizda musiqa san’atiga bo’lgan e’tibor davlat siyosati darajasiga ko’tarilgan. Xususan “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to‘g’risidagi 02.02.2022 yildagi PQ-112-son qarorida belgilangan 2022/2023 o‘quv yilidan boshlab ta’lim muassasalarida o‘quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko‘nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo’lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste’dodlarni aniqlash va qo’llab-quvvatlashga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi” va shunga o‘xshash musiqa san’atini rivojlantirish maqsadida bir qartor qarorlar qabul qilingani buning yaqqol tasdig’idir.

Yosh avlodni kamolot sari yetaklashda tarbiyaning ko‘plab omillari qatorida musiqa alohida o‘rin tutadi. Kuy va ohangni bola qalbiga tez yo‘l topa olishi, ruhiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi, xulq-odobi va yaxshi fazilatlarni shakllanib borishida katta ta’sir kuchiga ega bo‘lishi chuqur anglab yetilgan.

Xor ijrochiligi hozirgi kunda keng tarqalgan asl xalq san’ati turlaridan biridir. Jamoa ijrochiligi insonlarda chuqur estetik zavq uyg‘otibgina qolmay, ularni jipslashtiradi, jamoa bo‘lib birlashishga olib keladi hamda ma’naviy saviyasini, badiiy didini o‘stirishga yordam beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR



Q. Ma'mirov, Sh. Ro'ziyev N. Bahridinova Q. Mirzayevlar o'zlarining darslik o'quv uslubiy qo'llanmalarida xor jamoalari bilan ishlash uslubi, xor jamoasi dasturlarini shakllantrish maqsad va vazifalari, xor jamoasida qatnashchilarning xonandalik ko'nikmalarini, ansambl tuyg'usini rivojlantirish, xor ijrosining asosiy badiiy ifoda vositalari xor san'atining shakllanish va rivojlanish tarixi, professional xor jamoalari, yevropa xor san'ati hamda O'zbekiston bolalar xor san'ati madaniyati haqida nazariy va amaliy ma'lumotlar berilgan.

Inson ma'naviy dunyoqarashi - hozirda bu so'zga ko'p bora duch kelmoqdamiz. "Ma'naviyat" (arabcha "ma'nolar majmui") - kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmuidir. Demak, ushbu ta'rifdan kelib chiqib ayta olamizki, ma'naviy tarbiya bu-universal tarbiya demakdir, chunki u o'z tarkibiga tarbiyaning barcha turlarini qamrab oladi. O'quvchi-yoshlar ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish asosiy masalalardan bo'lib, bunda umumiyligini o'rta ta'limda o'qitilayotgan musiqiy ta'limning ham o'rni beqiyos. Xor to'garagi ham o'z oldiga bir necha vazifalarni qo'yib, "musiqiy asarlarning badiiy-g'oyaviy mazmuni vositasida o'quvchilarda axloqiy estetikqarashlarni tarbiyalash" o'quvchilar ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda musiqaning yetakchi rolini belgilaydi.

Buyuk mutaffakkir shoir A. Navoiy o'z asarlarida musiqa tarbiyasining qirralarini chuqur o'rganib, shunday dedi: "Musiqa jamiyat hayotining muhim negizidir. Faqat musiqagina odamning qalbiga tiniqlik, mutanosiblik va o'z-o'zidan qanot tuyg'usini olib kiradi va uni baxtiyor qiladi" Uning musiqaviy estetik qarashlari "Sabbai-Sayyor", "Mahbub-ul qulub", "Xamsa" kabi asarlarida aks etgan.

Shunday ekan, hozirgi davrda, musiqa o'qituvchisidan mas'uliyat, fanga yangicha yondashuv uning metodologiyasining chuqur o'rganish talab etadi.

Umumta'lim maktablarida esa, musiqa madaniyati darslarining asosiy maqsadi, o'quvchilarda musiqaga qiziqish uyg'otish vositasida musiqiy madaniyatini tarkib toptirish. Zero kuy va ohang ta'sirida inson ezgulikka intilish, go'zallikni asrash, ona tabiatga, ona vatanga muahbbat his tuyg'ularini shakllantirib, ma'naviy dunyoqarashini shakllantiradi. Musiqa turlari ichida esa xor san'ati eng ommaviy xususiyatga ega bo'lib, u jamiyatning kundalik hayoti bilan uzviy bog'liqdir.

Umumta'lim maktablarida tashkil etiladigan xor to'garaklari birinchi navbatda bolalarning yosh, psixologik-fiziologik jihatlarini e'tiborga olgan holda tashkil etiladi:

1. Kichik mакtab yoshdagи o'quvchilar xori. Bu 1-4 sinf o'quvchilaridan tashkil etiladi.
2. O'rta mакtab yoshi 5-7 sinflar.

3. Katta yoshdagи o'smirlar xori 8-9 sinflar. Maktab xor to'garaklaridagi mashg'ulotlar musiqa darsidagi musiqa tarbiyasining tabiiy davomiga aylanishi va shunga imkoniyat yaratish lozim. Shunga ko'ra mashg'ulotlar dars davomida o'rganilgan, ortirligani ko'nikma va malakalarni rivojlantirish va chuqurlashtirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

O'quvchilarni ma'naviy dunyoqarashlarini shakllantrishda, quydagi metodlarni qo'llash yordamida amalga oshirish mumkin:

- Xor jamoasi uchun asarlar tanlashda quyidagilarga amal qilish foydali bo'ladi:
- asar matnining badiiy mazmuni va tarbiyaviy ta'sirchanlikka ega bo'lishi;



- qo'shiqni bolalar tabiatini, ruhiyatiga, ijro imkoniyatlariga mos kelishi, yengil, oson o'zlashtiriladigan, xalqchil bo'lishi;
- asarning umum jamoa kuchiga to'g'ri kelishi;
- asar diapazonining xor turi va umuman diapazonga muvofiq kelishi;
- yengil va kichik asarlardan kattaroq, ijrosi nisbatan qiyiqroq asarlarga o'ta borish jamoani o'sishiga olib keladi.

- shakllangan qo'shiqlarning turli tadbir va konsertlarda foydalanish mumkinligini hisobga olish.

Hozirgi kunga kelib bolalar xor ijrochiligining yangi-yangi shakllari yuzaga kelmoqdaki, bulardan eng asosiyları quyidagilaridir:

1. Musiqa darslaridagi sinf-xor jamoasi. (Bular o'z o'rnila muktab madaniy tadbirlarida, sinf-konsert chiqishlarida o'zlarini namoyish qilishadi).
2. Maktabda tashkil qilinadigan bolalar xor to'garaklari.
3. Bolalar ijodiyot markazlarida tashkil etiladigan xorlar.
4. Bolalar xor studiyalari.
5. Bolalar musiqa va san'at maktablarida tashkil etiladigan xor jamoalari.
6. Madaniyat muassasalari qoshiqa tashkil etiladigan badiiy havaskorlik xor jamoalari.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda o'qituvchi o'z imkoniyatlariga qarab to'garaklar tuzish mumkin:

1. Xor
2. Ashula va raqs ansambllari
3. Vokal ansambllari
4. Cholg'uchilar ansambl (dutorchilar, rubobchilar, doirachilar)
5. Raqs ansambl
6. Orkestr (duxovoy, xalq cholg'u asboblari orkestri)
7. Yakkaxon qo'shiqchilar
8. Folklor dastasi

Xulosa

Muktab xor to'garaklaridagi amalyot hamda o'quvchilar ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishdagi mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha quydag'i ishlarni amalga oshirish bilan yuksak natijaga erishish mumkin:

-muktab xor jamoalari ishi hamda amaliyotining ish uslubi, ustozlar ko'magi, shoir va kompozitorlar bilan hamkorlik, ko'rik tanlovlarda muntazam qatnashish, ish faoliyat hamda erishgan yutuqlarni televideniyada yorib borish natijasida, xor jamoalari bilan ishslash faoliyatidagi yutuqlar va tajriba-sinov ishlari natijalarini yanada yuqori ko'tarish mumkin.

Bir so'z bilan aytganda muktab xor to'garagining butun faoliyati o'quvchilarni g'oyaviy, siyosiy, badiiy-estyetik tarbiyalash ishlari bilan birga, ularni har jihatdan kamol toptirishda o'z samarasini bermog'i lozim.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. PQ-112-son. 2022-yil 2-fevral, Toshkent sh. <https://lex.uz/uz/docs/-5849580>.
 2. Q. Ma'mirov "Xorshunoslik asoslari" (o'quv qo'llanma) Toshkent 2008
 3. Sh. Ro'ziyev "Xorshunoslik" (o'quv metodik qo'llanma) Toshkent 1987
 4. N. Bahridinova "O'zbekiston bolalar xor madaniyati" (o'quv-uslubiy qo'llanma) Toshkent 2002
 5. Z. Inomova "O'quvchi yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantrish" maqola 2022
 6. G. Sharipova, D. Asamova Z. Xodjayeva. Musiqa o'qitish nazariyasi metodikasi va maktab repertuari.
-